

ZOTLI QORAMOLLARDA KATTA QORIN ATSIDOZINING ASOSIY SABABLARI VA MIKRO-MORFOLOGIK HAMDA BAKTERIOLOGIK DIAGNOSTIKASI

Xayitov Bekjon Norbek o'g'li - assistent,

Bakirov Baxtiyar - professor

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti

Annotatsiya. В статье приведен анализ результатов клинических наблюдений по распространению и этиологию, а также экспериментальных исследований по разработке диагностических и лечебно-профилактических мер ацидоза рубца у племенных коров в условиях фермерских хозяйств республики.

Summary. The article analyzes the results of clinical observations on the distribution and etiology, as well as experimental studies on the development of diagnostic and treatment-and-prophylactic measures of rumen acidosis in breeding cows in the conditions of farms of the republic.

Kalit so'zlar: atsidoz, laminit, sut kislotasi va UYOK, katta qorin suyuqligi muhiti (pH), katta qorinning surunkali atsidozida (KQSA)

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda olib borilayotgan agrar isloxlarning amalga oshirilishida chetdan keltirilgan zotli qoramollar kasalliklari, xususan, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklari katta to'siqlardan biri bo'lib kelmoqda va chorcachilikka katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda.

Hozirgi vaqtda yuqori mahsuldor sigirlarni oziqlantirishda chorcachilik fermalarining ratsioni yuqori konsentrat tipida ekanligi va sifatli pichanning yetishmasligi natijasida chorva mollarining ovqat hazm qilish tizimining, shu jumladan, oshqozon oldi bo'limlari kasalliklari negizida katta qorin atsidoz kasalligi kuzatilmoqda.

Ma'lumki, zamonaviy naslli sigirlarning yuqori mahsuldorligi yaxshi muvozanatli (birinchi navbatda energiya va protein jihatidan) oziqlantirish natijasida ro'y beradi. Ozuqalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, kraxmalga boy donli kontsentratlarning muttasil oshib borishi va sifatli pichanga boy ozuqalar miqdorining kamayishi, yuqori darajadagi konsentrat oziqlantirish sut ishlab chiqarishning ko'payishi bilan oshqozon fermentatsiyasining buzilishi va atsidoz, shuningdek, laminit va boshqa kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday holatni mualliflar katta qorinda qator kislotalar, shu jumladan sut kislotasining intensiv shakllanishi, kraxmal fermentatsiyasining kuchayishidan esa, katta qorin suyuqligi muhiti (pH) ning 5,2-5,6 ga tushishiga (sog'lom hayvonlarda = 6,5-7,5) olib keladi [1].

Tadqiqotning maqsadi. Zotli qoramollarda katta qorin atsidoz kasalligi hamda ushbu kasallikka yo'ldosh metabolism buzilishlarini ertachi aniqlash, samarali davolash va guruhli oldini olish chora-tadbirlari majmuyini ishlab chiqish.

Tadqiqotlar ob'ekti va uslublari. Ilmiy tadqiqotlar Respublikamizning Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani «Agro-Bravo chorvasi», Payariq tumani «Ochilov Maxmudjon dalasi», Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani «Yangi Asir», Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumani «Omadli Zarnigor» fermer xo'jaliklarida olib borildi. «Agrabravo chorvasi» fermer xo'jaligidagi 110 bosh, «Ochilov Mahmudjon dalasi» fermer xo'jaligidagi 40 bosh, «Yangi Asr» chorva fermer xo'jaligidagi 80 bosh, «Omadli Zarnigor» fermer xo'jaligidagi 90 bosh sigir dispanserlash tamoyili asosida klinik va laborator tekshirishlardan o'tkazildi.

Olingan natijalar tahlili. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazilayotgan xo'jaliklarda parvarish qilinayotgan mahsuldor sigirlarda katta qorin atsidozining tarqalishi 2018 - 2021 yillar davomida o'rganilib tahlil qilinib borildi, bunda ushbu vaqt mobaynida aniqlangan ko'rsatkichlarning yil fasillari, xo'jalikdagi hayvonlar saqlash va oziqlantirish jihatlari bilan chambarchas aloqador ekanligi kuzatildi.

Olimning kuzatishlariga ko'ra katta qorin atsidoz ko'pincha hayvon tuqqandan keyin 3-4-oyda va keyinchalik yil davomida o'zini namoyon qiladi, bu hayvonlarni davolashga sabab bo'lishini ta'kidlagan [3].

Olimlarning [4] ma'lumotlariga ko'ra, qish va erta bahorda sigirlar katta qorin suyuqligining pH ko'rsatkichi kislotalik tomonga oshishi, infuzoriyalar sonining kamayishi ularda oshqozon oldi bo'limlarning gipotoniya hamda hazmlanish jarayonlarining buzilishi bilan na'moyon bo'ladi.

Sigirlarda katta qorin atsidozi kasalligining fasllar bo'yicha tarqalishini o'rganish maqsadida qoramolchilik ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridagi sigirlarni "o'xshash juftliklar" tamoyili asosida bug'ozlik davrining 8-9 oylari va sut berish davrining 1-2, 4-5 va 7-8 oylarida uyg'un dispanserlash [2] tamoyili orqali tekshirishlardan o'tkazildi. Sigirlardan olingan oshqozon suyuqligi va qon namunalari laborator tekshirishlardan o'tkazildi.

Katta qorin suyuqligini pH ko'rsatkichi, undagi infuzoriyalar soni, turi va funktsional faolligi, qon namunalari eritrotsit va leykotsitlar soni, gemoglobin, umumiy oqsil, glyukoza va keton tanachalari, kalsiy va fosfor miqdorlarini aniqlash orqali fasllar kesimida tarqalishi hududlar miqyosida aniqlandi.

1-jadval. "Agro-Bravo chorvasi" fermer xo'jaligidagi sigirlarning kasallanish darajasi

T/R	Yillar	Tekshirilgan hayvonlar soni, bosh	2018-2021 yillarda sigirlarning kasallanish dinamikasi									
			Yoz		Kuz		Qish		Bahor		O'rtacha	
			soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
1	2018	110	22	20	37	33,6	73	66,4	64	58,2	49	44,5
2	2019	90	20	22,2	34	37,8	62	68,9	56	62,2	43	47,8
3	2020	150	33	22	54	36	108	72	97	64,7	73	48,8
4	2021	120	30	25	48	40	84	70	72	60	58,5	48,7
Jami		117,5	26,2	22,3	43,2	36,8	81,7	69,3	72,2	61,3	55,9	47,5

Samarqand viloyatining Oqdaryo tumaniga qarashli "Agro-Bravo chorvasi" fermer xo'jaligi sharoitida parvarish qilinayotgan 110 bosh Golishteyn zotli sigirlarning 2018 yil yoz faslida 20%, kuz faslida 33,6%, qish faslida 66,4% va bahor faslida 58,2% ida katta qorin atsidozi kasalligi aniqlandi. Ushbu fermer xo'jalikdagi sigirlarda katta qorin atsidozi kasalligining tarqalishi keyingi yillarda ham fasllar kesimida o'rganib borish natijalarida aniqlandiki, 2019 yilda 90 bosh sigirlarning yoz faslida 22,2%, kuzda 37,8%, qishda 68,9% va bahor faslida 62,2%-ida, 2020 yilda tekshirilgan 150 bosh sigirlarning mos ravishda, 22%, 36%, 72% va 64,7%-ida, 2021 yilda tekshirilgan 120 bosh sigirlarning, mos ravishda, 25%, 40%, 70% va 60%-ida katta qorin atsidozi kasalligi qayd etildi (1-jadval).

2-jadval. "Ochilov Mahmudjon dalasi" fermer xo'jaligidagi sigirlarning kasallanish darajasi

T/R	Yillar	Tekshirilgan hayvonlar soni, bosh	2018-2021 yillarda sigirlarning kasallanish dinamikasi									
			Yoz		Kuz		Qish		Bahor		O'rtacha	
			soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
1	2018	40	7	17,5	12	30	19	47,5	17	42,5	13,7	34,4
2	2019	50	8	16	16	32	24	48	20	40	17	34
3	2020	50	11	22	15	30	26	52	22	44	18,5	37
4	2021	60	12	20	21	35	30	50	27	45	22,5	37,5
Jami		50	9,5	18,9	16	31,7	24,7	49,4	21,5	42,9	17,9	35,7

Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi "Ochilov Mahmudjon dalasi" fermer xo'jaligi sharoitida parvarish qilinayotgan mahsuldor sigirlar orasida katta qorin atsidozi kasalligining tarqalishi 2018 yilda tekshirilgan 40 bosh sigirlarning yoz faslida 17,5%, kuz faslida 30%, qish faslida 47,5% va bahor faslida 42,5%-ni, 2019 yilda 50 bosh tekshirilgan sigirlarning mos ravishda, 16%, 32%, 48% va 40 %-ni, 2020 yilda

50 bosh tekshirilgan sigirlarning 22%, 30%, 52% va 44 %-ni, 2021 yilda 60 bosh tekshirilgan sigirlarning mos ravishda, 20%, 35%, 50% va 45 %-ni tashkil etishi qayd etildi (2-jadval).

3-jadval. “Yangi asr” fermer xo‘jaligidagi sigirlarning kasallanish darajasi


T/ R	Yillar	Tekshirilgan hayvonlar soni, bosh	2018-2021 yillarda sigirlarning kasallanish dinamikasi									
			Yoz		Kuz		Qish		Bahor		O‘rtacha	
			soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
1	2018	80	20	25	26	32,5	48	60	42	52,5	34	42,5
2	2019	100	29	29	43	43	75	75	61	61	52	52
3	2020	90	28	31,1	40	44,4	69	76,7	62	68,9	49,7	55,3
4	2021	150	45	30	75	50	120	80	105	70	86,2	57,5
Jami		105	30,5	28,8	46	42,5	78	72,9	67,5	63,1	55,5	51,8

Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi “Yangi asr” fermer xo‘jaligi sharoitidagi mahsuldor sigirlarda katta qorin atsidozi kasalligining tarqalishi 2018 yilda 80 bosh tekshirilgan sigirlarning yoz faslida 25%, kuz faslida 32,5%, qish faslida 60% va bahor faslida 52,5%-ni, 2019 yilda 100 bosh tekshirilgan sigirlarning mos ravishda, 29%, 43%, 75% va 61%-ni, 2020 yilda 90 bosh tekshirilgan sigirlarning mos ravishda, 31,1%, 44,4%, 76,7% va 68,9%-ni, 2021 yilda 150 bosh tekshirilgan sigirlarning mos ravishda, 30%, 50%, 80% va 70%-ni tashkil etdi (3-jadval).

4-jadval. “Omadli zarnigor” fermer xo‘jaligidagi sigirlarning kasallanish darajasi

T/ R	Yillar	Tekshirilgan hayvonlar soni, bosh	2018-2021 yillarda sigirlarning kasallanish dinamikasi									
			Yoz		Kuz		Qish		Bahor		O‘rtacha	
			soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
1	2018	90	16	17,8	24	26,7	42	46,7	40	44,4	30,5	33,9
2	2019	80	18	22,5	24	30	41	51,2	38	47,5	30,2	37,8
3	2020	60	15	25	20	33,3	30	60	32	53,3	24,2	42,9
4	2021	70	19	27,1	24	34,3	45	64,3	43	61,4	32,7	46,8
Jami		75	17	23,1	23	31	39,5	55,5	38,2	51,6	29,4	40,4

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi “Omadli zarnigor” fermer xo‘jaligidagi Simental zotli sigirlar orasida katta qorin atsidozi kasalligining tarqalishi 2018 yilda dispanser tekshiruvdan o‘tkazilgan 90 bosh sigirdan yoz faslida 17,8%, kuz faslida 26,7%, qish faslida 46,7% va bahor faslida 44,4 % ni, 2019 yilda tekshirilgan 80 bosh sigirlarning mos ravishda, 22,5%, 30%, 51,2% va 47,5% ni, 2020 yilda tekshirilgan 60 bosh sigirdan mos ravishda, 25%, 33,3%, 60% va 53,3% ni, 2021 yilda dispanser tekshiruvdan o‘tkazilgan 70 bosh sigirdan mos ravishda, 27,1%, 34,3%, 64,3% va 61,4% ni tashkil etdi (4-jadval. 1- rasm.).



1-rasm. 2018-2021 yillarda sigirlarning katta qorin atsidozi bilan kasallanish darajasi

Xulosa.

1. 2018 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda fermer xo'jaliklaridagi mahsuldor sigirlarning katta qorin atsidozi bilan kasallanish darajasi o'rganilgan yillarning qish va bahor fasllarida yuqori bo'lib, yoz va kuz fasllarida bu kasallikning boshqa fasllardagiga qaraganda nisbatan kam uchrashi qayd etildi.

2. Tajriba o'tkazilgan fermer xo'jaliklaridagi sigirlar yilning barcha fasllarida asosan bir joyda saqlanganligi, mationning yetarli darajada emasligi, tezak va siydikning vaxtida tozalanmasligi natijasida bir kunda sigirlarning yotib dam olish vaqtining qisqaligi (normada 13 soat), bir oziqa turidan boshqa oziqa turiga birdaniga o'rgatmasdan o'tkazilishi natijasida sog'in sigirlar orasida katta qorin atsidozi kasalligining rivojlanishiga shart-sharoit yaratilishi mumkinligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Chaucheyras-Durand, F. Effects of active dry yeast on the rumen microbial ecosystem: past, present and future / F. Chaucheyras-Durand, N.D. Walker, A. Bach // Animal. Feed. Sci. Technol., 2008, 145:5-26.
2. Gozho, G. N. Rumen lipopolysaccharide and inflammation during grain adaptation and subacuteruminal acidosis in steers / G.N. Gozho, D.O. Krause, J.C. Plaizier // J. Dairy Sci., 2006, 89:4404-4413.
3. Бакиров Б. Хайвонларнинг ички юкумсиз касалликлари. Ўқув қўлланма. Самарқанд. 2015 йил, №145.147.149 Б.
4. Booth, C. J. Effect of lameness on culling in dairy cows / C.J. Booth, L.D. Warnick, Y.T. Grohn, D.O. Maizon, C.L. Guard, D. Janssen // J. Dairy Sci., 2004, 87: 4115-4122.
5. Норбеков Қ.Н., С.Б. Ешбўриев “Маҳсулдор сугирларда витамин ва минерал моддалар алмашинуви бузилишлари диагностикаси”. Зооветеринария. 2015.№ 10. Б. 9-10.